
Yoshlarga mehnat qurollari topshirildi

Farg'ona shahrida yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning bandligini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun "Yoshlar daftari"ga kiritilgan o'n nafarga yaqin ishsiz yoshlarga o'zini o'zi band qilishi uchun amaliy yordamlar ko'rsatildi.

Har bir ishsiz yoshlar bilan so'rovnomalar o'tkazilib, ularning kasb-hunar qobiliyati, qiziqishi hisobga olindi hamda tikuv mashinalari, kompyuter jamlanmalari va sartaroshlik anjomlari ajratildi.

Tadbirda shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektor rahbarlari, shahar hokimi o'rinbosarlari, Yoshlar ishlari agentligi shahar bo'limi xodimlari ishtirok etdi.

2022-06-27 09:47:16